



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI ABU RAYHON BERUNIY
NOMIDAGI URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

“QURILISH VA ARXITEKTURA SOHASIDAGI INNOVATSION
G'OYALAR, INTEGRATSIYA VA TEJAMKORLIK”

УРГЕНЧСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ АБУ РАЙХАНА БЕРУНИ

РЕСПУБЛИКАНСКАЯ
НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ
«ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ, ИНТЕГРАЦИЯ
И ЭКОНОМИКА В ОБЛАСТИ
СТРОИТЕЛЬСТВА И АРХИТЕКТУРЫ»

IN THE NAME OF
ABU RAYHAN BERUNI
URGANCH STATE UNIVERSITY

“INNOVATIVE IDEAS, INTEGRATION,
AND ECONOMY IN THE FIELD OF
CONSTRUCTION AND
ARCHITECTURE”
SCIENTIFIC AND PRACTICAL
REPUBLICAN CONFERENCE

MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA
ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA
1-TO'PLAMI



TASHKILIY QO‘MITASI:

RAIS:

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti rektori v.v.b.,
professor - **S.U. Xodjaniyazov**

HAMRAISLAR:

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti ilmiy ishlar va
innovatsiyalar bo‘yicha prorektori, PhD, dotsent - **Z.Sh. Ibragimov**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti xalqaro hamkorlik
bo‘yicha prorektori, f-m.f.d., professor - **G‘.U. Urazboyev**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti, Texnika fakulteti
dekani, f-m.f.n., dotsent - **M.Q. Qurbanov**

Toshkent davlat transport universiteti, Avtomobil yo‘llari muhandisligi
fakulteti dekani, t.f.d., professor - **A.X. Urokov**

Xorazm viloyati Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi boshqarmasi, Urganch
tuman bosh arxitektori - **R.B. Matmurotov**

ILMIY KOTIB:

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti, “Qurilish”
kafedrası dotsenti, PhD - **A.A. Qutlijev**

TASHKILIY QO‘MITA A‘ZOLARI:

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti yoshlar masalalari
va ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar bo‘yicha prorektori, PhD, dotsent - **D.I. Ibadullayev**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti moliya-iqtisod
ishlari bo‘yicha prorektori - **A. Atajanov**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti “Qurilish”
kafedrası mudiri, t.f.n., dots. – **Q.K. Axmedov**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti “Arxitektura”
kafedrası mudiri **R. Palvanov**

t.f.d., prof., R. Raximov, t.f.d., prof., B.Raxmonov, t.f.n., dots., K.Kuryozov, i.f.n., dots., N. Sattorov, a.f.n., dots., M. Setmamatov, a.f.f.d., dots., S. Atoshev, a.f.f.d., Sh. Abdullayeva, dots., Sh. Xo‘janiyozov, t.f.f.d., S. Sultanova, A. Atamuratov, A. Seyitniyozova, N. Kariyeva, S. Rajabov, S. Yusufov, A. Sobirov, X. Madirimov, X. Radjabov, I. Bekturdiyev, B. Radjapov, A. Xodjayazov, A. Matkarimov, M. Djumanazarova, R. Nafasov, Sh. Navruzov, Y. Tadjiyev, R. Sovutov, A. Samandarov, L. Yusupova, Sh. Masharipov, H. Bekchanov, D. Shalikarova, S. Nurmuhammedov, I. Matnazarov, Q. Soburov, K. Yuldashev, A. Bobojonov, Sh. Nurimetov, H. Masharipova, S. Qurambayev, M. Ashurova, A. Shomurotov.

ILMIY-TEXNIK ANJUMAN DASTURIY QO‘MITASI:

Rais: “ARXITEKTURA, QURILISH, DIZAYN” ilmiy-amaliy jurnalining bosh muharriri, i.f.d., prof. **Nurimbetov Ravshan Ibragimovich**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universitetida 2025 yil 15-16-sentabr kunlari “Qurilish va arxitektura sohasidagi innovatsion g‘oyalar, integratsiya va tejamkorlik” mavzusidagi respublika miqyosidagi ilmiy va ilmiy-texnik konferensiya materiallari kiritilgan.

To‘plamga kiritilgan maqolalar mazmuni, ilmiy salohiyati va keltirilgan dalillarning haqqoniyligi uchun mualliflar mas’uldirlar.

QORAQALPOG'ISTON HUDUDIDA EKO TURIZM SOHASINI RIVOJLANTIRISH TAMOIYILLARI

arx.f.d., dotsent Reyimbaev Shuxrat Sadullayevich. TAQU.

ORCID: 0009-0006-2069-0995

E-mail: info@taqu.edu.uz; shuh_1977@mail.ru

Kaipbergenov Azat Erejebbaevich

Toshkent arxitektura-qurilish universiteti tayanch doktoranti

E-mail: kaipbergenozat1@mail.ru

Annotatsiya

Ushbu maqolada Qoraqalpog'iston Respublikasida ekologik turizmni rivojlantirish imkoniyatlari, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari tahlil qilingan. Hududning tabiiy resurslari - Orol dengizi, Sudochi ko'li, Ustyurt platosi, Badai-Tugay qo'riqxonasi ekologik turizm uchun katta salohiyatga ega ekani ko'rsatib berilgan. Ekoturizmni rivojlantirishda infratuzilma, mahalliy aholining bilim va ko'nikmalari, marketing va ekologik nazorat tizimini takomillashtirish zarurligi asoslab berilgan. Shuningdek, xalqaro hamkorlik va investitsiyalarni jalb qilish orqali hududning turizm salohiyatini yanada kengaytirish imkoniyatlari yoritilgan.

Аннотация

В данной статье анализируются возможности развития экологического туризма в Республике Каракалпакстан, существующие проблемы и пути их решения. Показано, что природные ресурсы региона - Аральское море, озеро Судочи, плато Устюрт, заповедник Бадай-Тугай - обладают высоким потенциалом для экотуризма. Обоснована необходимость развития инфраструктуры, подготовки местного населения, совершенствования маркетинга и экологического контроля. Также освещены перспективы расширения туристического потенциала региона через привлечение международного сотрудничества и инвестиций.

Annotation

This article analyzes the opportunities for the development of ecotourism in the Republic of Karakalpakstan, existing problems and possible solutions. The region's natural resources - the Aral Sea, Lake Sudochi, the Ustyurt Plateau, and the Badai-Tugay Reserve - are shown to have significant potential for ecotourism. The necessity of developing infrastructure, training local communities, improving

marketing, and strengthening environmental control is substantiated. The article also highlights opportunities to expand the region's tourism potential through international cooperation and investment.

Kalit soʻzlar

Ekoturizm, Qoraqalpogʻiston, Orol dengizi, Sudochi koʻli, Ustyurt platosi, Badai-Tugay, ekologik infratuzilma, mahalliy aholi, marketing, ekologik nazorat, investitsiya, barqaror rivojlanish.

Ключевые слова

Экотуризм, Каракалпакстан, Аральское море, озеро Судочи, плато Устюрт, Бадай-Тугай, экологическая инфраструктура, местное население, маркетинг, экологический контроль, инвестиции, устойчивое развитие.

Keywords

Ecotourism, Karakalpakstan, Aral Sea, Lake Sudochi, Ustyurt Plateau, Badai-Tugay, ecological infrastructure, local population, marketing, environmental control, investment, sustainable development.

Kirish

Soʻnggi yillarda butun dunyo boʻylab turizm sohasi jadal surʼatlar bilan rivojlanmoqda. Turizmning turli yoʻnalishlari shakllanib, uning ichida ekologik turizm (eko turizm) alohida oʻrin egallab bormoqda. Eko turizm - bu nafaqat sayyohlik ehtiyojlarini qondirish, balki tabiatni asrab-avaylash, mahalliy aholining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga xizmat qilish va atrof-muhit barqarorligini taʼminlashga qaratilgan faoliyatdir[1].

Qoraqalpogʻiston Respublikasi oʻzining noyob tabiiy va madaniy boyliklari, Orol dengizi, Ustyurt platosi, Sudochi koʻli, Badai-Tugay qoʻriqxonasi kabi hududlari bilan eko turizmni rivojlantirish uchun katta salohiyatga ega. Mazkur maqolada Qoraqalpogʻiston hududida eko turizmni rivojlantirish imkoniyatlari, asosiy muammolar, ularni hal etish yoʻllari va rivojlantirish tamoyillari tahlil qilinadi.

Asosiy qism

Ekoturizm zamonaviy turizmning eng istiqbolli va ekologik barqaror turlaridan biri hisoblanadi. Eko turizmning asosiy mohiyati sayyohlik faoliyatini atrof-muhitga zarar yetkazmagan holda tashkil etish, tabiat resurslaridan oqilona foydalanish va

mahalliy aholining manfaatlarini inobatga olishdan iboratdir[2]. Bu yo‘nalishda faoliyat yuritish uchun bir qancha tamoyillarga rioya qilinishi zarur. Ular jumlasiga ekologik barqarorlik, mahalliy aholining manfaatlarini hisobga olish, madaniy merosni saqlash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ekologik ma’rifatni rivojlantirish kiradi[3].

Qoraqalpog‘iston Respublikasi geografik joylashuvi, tabiiy resurslari va madaniy-tarixiy merosi bilan ekologik turizmni rivojlantirish uchun juda qulay hudud sanaladi. Xususan, Orol dengizi va uning atrofidagi hududlar, Orolbo‘yi hududi, Badai-Tugay qo‘riqxonasi, Ustyurt platosi va Sudochi ko‘li, Aqcha ko‘li, Ashshı ko‘li, Qora Terang ko‘li eko turizmning asosiy manzillari sifatida ko‘rsatib o‘tiladi[4]. Ushbu hududlar bilan bir qatorda Aqcha ko‘li, Ashshı ko‘li, Qora Terang ko‘llarida ha‘m noyob flora va fauna, suv-botqoqlik ekotizimlari, cho‘l va yarim cho‘l zonalari mavjud bo‘lib, ular ekologik turizm uchun alohida qiziqish uyg‘otadi.

1-jadval

	Ekoturizm obyektlari nomi	Joylashu vi	Asosiy ekoturizm faoliyatlari
	Orol dengizi	Mo‘ynoq tumani	Ekofajiya sayohatlari, ilmiy ekspeditsiyalar
	Sudochi ko‘li	Qo‘ng‘iro t tumani	Qush kuzatuvi (ornitoturizm), ekologik sayrlar
	Badai-Tugay qo‘riqxonasi	Amudary o tumani	Cho‘l landshaftlari, ekologik ta’lim ekskursiyalari
	Ustyurt platosi	Qo‘ng‘iro t, Taxtako‘pir	Geoturizm, paleontologik sayohatlar
	Qora Terang ko‘li	Taxtako‘ pir tumani	Baliq ovlash, ekologik kuzatuv, tabiat

			sayr marshrutlari
	Aqcha ko'li	Ellikqal'a tumani	Suv sayohatlari, qushlarni kuzatish
	Ashshi ko'li	Nukus shahri	Dam olish sayrlari, suv ekotizimi o'rganish

Masalan, Orol dengizi ekologik fojia natijasida qurib borayotgan hudud bo'lishiga qaramay, hozirgi kunda ekologik turizm uchun muhim obyekt sifatida shakllanmoqda. Bu hududda Orol fojiasi oqibatlarini ko'rish, ekologik laboratoriya va ilmiy ekspeditsiyalar tashkil etish imkoniyatlari mavjud. Shuningdek, Sudochi ko'li va Badai-Tugay qo'riqxonasi o'zining boy qushlar dunyosi va o'simliklar qoplamasi bilan ornitologik va botanika turizmi uchun katta salohiyatga ega[5].

Shuningdek, Ustyurt platosi ham o'zining geologik tuzilishi, paleontologik boyliklari va betakror landshafti bilan ekologik va ilmiy turizm uchun qiziqish uyg'otadi. Bu hududlarda eko turizmni rivojlantirish orqali nafaqat hududning iqtisodiy salohiyatini oshirish, balki ekologik muhofazani ta'minlash va aholining farovonligini yaxshilash mumkin.

Biroq, Qoraqalpog'iston hududida eko turizmni rivojlantirishda qator muammolar mavjud. Ularga eng avvalo infratuzilma muammolari kiradi. Hududlarda sayyohlar uchun zarur bo'lgan transport, yo'l va mehmonxona infratuzilmasi yetarli darajada rivojlanmagan. Shuningdek, eko turizm bo'yicha mahalliy aholining yetarli bilim va tajribaga ega emasligi ham muhim muammolardan biri hisoblanadi[6].

Bundan tashqari, ekologik obyektlarning yetarli darajada reklama qilinmagani, turizmni targ'ib qilish bo'yicha marketing strategiyalarining sustligi, xalqaro tajriba va investitsiyalarning kamligi eko turizm rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Eng muhimi, ekologik muhofaza tizimi va nazorat mexanizmlarining yetarli darajada ishlamasligi ham ekoturizm rivoji uchun to'siq bo'lib turibdi[7].

Shu sababli, Qoraqalpog'iston hududida eko turizmni rivojlantirish uchun quyidagi tamoyillarni joriy etish muhim ahamiyatga ega. Birinchidan, ekologik infratuzilmani rivojlantirish zarur. Bu borada ekologik toza mehmonxonalar, eko-

kempinglar, velosiped va piyoda yo‘laklari tashkil etilishi kerak. Ikkinchidan, mahalliy aholining ishtirokini ta’minlash lozim. Aholi uchun maxsus o‘quv kurslari, gidlik, hunarmandchilik va xizmat ko‘rsatish bo‘yicha tayyorgarlik ishlari olib borilishi kerak.

Uchinchidan, ekologik monitoring tizimini yaratish va biologik xilma-xillikni doimiy nazorat qilish orqali tabiat boyliklarini saqlash choralari kuchaytirilishi zarur. To‘rtinchidan, xalqaro hamkorlik va investitsiyalarni jalb qilish orqali xorijiy tajriba va ilg‘or texnologiyalarni o‘zlashtirish maqsadga muvofiq bo‘ladi[8].

Shuningdek, eko turizm sohasi rivojida marketing va reklama faoliyatini kuchaytirish, hududning turistik brendini shakllantirish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Qoraqalpog‘istonning eko turistik salohiyatini xalqaro turizm bozorida tanitish orqali xorijiy turistlarni jalb etish va hudud iqtisodiyotiga qo‘shimcha daromad manbalarini yaratish mumkin bo‘ladi.

Xulosa

Shuni xulosa qilib aytish mumkinki, Qoraqalpog‘iston Respublikasi ekologik turizm sohasida katta salohiyatga ega. Tabiiy va madaniy resurslardan oqilona foydalanish, atrof-muhitni muhofaza qilish va mahalliy aholining farovonligini ta’minlash orqali hududda ekologik turizmni rivojlantirish mumkin. Buning uchun barqaror infratuzilmani yaratish, mahalliy kadrlarni tayyorlash, ekologik monitoring tizimini shakllantirish va xalqaro hamkorlikni rivojlantirish zarur. Ekologik turizmning rivojlanishi nafaqat iqtisodiy foyda keltiradi, balki hududning ekologik barqarorligini ta’minlashga ham xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Weaver, D.B. Ecotourism. John Wiley & Sons Australia, 2001.
2. Honey, M. Ecotourism and Sustainable Development: Who Owns Paradise? Island Press, 2008.
3. Berdiyev B.B. "Orolbo‘yi ekologik inqiroz zonasi va turizm imkoniyatlari", Turizm va iqtisodiyot, 2020.

4. Qayipbergenov A. "Qoraqalpog'iston ekologik turizmi: imkoniyat va muammolar", Ilmiy izlanishlar, 2022.
5. UNWTO. Sustainable Development of Ecotourism: A Compilation of Good Practices. 2012.
6. Jo'rayev S. "Eko turizm rivojlanishining hududiy tahlili", Geografiya va tabiiy resurslar, 2021.
7. Zholdasov N., "Qoraqalpog'istonda turizmni rivojlantirish muammolari", Oliy ta'lim va fan, 2019.
8. Karimov D. "Ekoturizmning iqtisodiy samaradorligi", Turizm va iqtisodiyot, 2020.

АРХИТЕКТУРНО-ИНФРАСТРУКТУРНЫЕ РЕШЕНИЯ КАК ФАКТОР ПОВЫШЕНИЯ ИННОВАЦИОННОГО ПОТЕНЦИАЛА ТЕХНОПАРКОВ

Одина Олимова

Докторант (PhD) Самаркандского государственного архитектурно-строительного университета имени Мирзо Улугбека, Самарканд

o.odina@samdaqu.edu.uz

Идентификатор ORCID: <https://orcid.org/0009-0007-5505-550X>

WoS ID: HKV-8282-2023

Scopus ID: 59380815100

Аннотация

Современные технопарки рассматриваются как ключевой элемент инновационной экономики, объединяющий университеты, стартапы, бизнес-инкубаторы и государственные структуры в единую экосистему. Несмотря на наличие обширных исследований, недостаточно изучен вопрос о том, каким образом архитектурные и инфраструктурные решения непосредственно формируют инновационный потенциал и влияют на эффективность взаимодействия резидентов. Целью настоящего исследования является выявление принципов пространственной и инженерной организации технопарков, которые способствуют росту креативности и устойчивому развитию. Методологическая база опирается на анализ международных кейсов